

UO‘T 631.4.6(575.16).415.52**QISHLOQ XO‘JALIK YERLARIDAN FOYDALANISHNING MAJMUALI
MUAMMOSINING NAZIRIY MASALALARI****Asatov Jasurbek Sayitkulovich**

*Geodeziya va geoinformatika ta`lim yo`nalishi talabasi “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo`jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tatqiqot universiteti
Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti*

Annotatsiya: *Ushbu maqola qishloq xo`jalik yerlaridan foydalanishni boshqarish, yerdan foydalanishni rejalashtirish va tashkil etish tizimi ulardan samarali foydalanish, muhofaza qilish holatini yaxshilash va qayta tiklash, tuproq unumdorligini qayta tiklash hamda ishlab chiqarish kuchlarini mavjud sharoitlarni va kelajakni nazarda tutgan holda joylashtirish kabi masalalar yoritilgan.*

Kalit so`zlar: *resurs, boshqarish, dehqonchilik, fermer, yengil qumoq, qishloq xo`jaligi, yerdan foydalanish, meliorativ tadbirlar, chegara, yer toifalari.*

Abstrakt: *This article covers issues such as agricultural land use management, land use planning and organization system, effective use of them, improvement and reclamation of conservation status, reclamation soil fertility, and placement of production forces considering current conditions and the future.*

Keywords: *resource, management, farming, farmer, light sand, agriculture, land use, reclamation activities, border, land categories.*

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi katta miqdordagi yer resurslariga ega. U mamlakat Konstitutsiyasida qayd qilinganidek, o‘zbek xalqining milliy boyligini tashkil etadi. Yer resurslarini jamiyat hayotida va rivojida tutgan o‘rni benihoya yirikdir. U ishlab chiqarish vositasi hamda kenglik-operatsion asos sifatida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida, inson faoliyatining ijtimoiy va boshqa turli jabhalarida foydalaniladi. Muhim yer toifalaridan biri – bu qishloq xo‘jalik yerlari, shu jumladan sug‘oriladigan yerlardir.

Yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanish ko‘p jihatdan ushbu muhim jarayonni integratsion boshqarishda qo‘llaniladigan uslublar va usullar bilan belgilanadi. Yerdan foydalanishni integratsion boshqarish bugungi bozor iqtisodiyotini rivojlantirish sharoitida rang-barang moddiy va boshqa boyliklar ishlab chiqarishda jamiyatning bugungi kun talablariga javob beradigan yerdan foydalanish tizimini yaratishni talab qiladi. Ushbu maqsadda bu sohaga oid vakolatli davlat hokimiyati organlari va idoralarini, shuningdek nodavlat, notijorat tashkilotlarini yerdan (va sug‘orish suvidan) foydalanishning integratsion boshqarish uslublari hamda vositalari bilan qurollantirish zarurdir.

Ishlab chiqarishning har qanday vositalaridan to‘g‘ri va samarali foydalanish ko‘p jihatdan uning eng muhim xususiyatlari qanchalik chuqur va har tomonlama o‘rganilganligiga bog‘liq. Bu eng avvalo, yerga tegishli bo‘lib, undan oqilona

foydalanish ilmiy asoslangan tadbirlar majmuini ishlab chiqarishga izchillik bilan yondoshish va amalda to'plangan tajribalarga rioya qilgan holda tashkii etilishi mumkin.

Butun dunyo bo'yicha shu vaqtgacha ishlab chiqilgan ko'pdan ko'p yig'ilgan ma'lumotlarni umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, tuproq qatlamining butun yer yuzi miqyosidagi funksiyalari tuproqqa aniq maqsadni ko'zlab bevosita ta'sir o'tkazish natijasida ham, shuningdek g'oyat xilma xil qo'shimcha, ikkinchi darajali, ko'pincha kutilmagan salbiy ekologik holatlar natijasida ham inson faoliyatining ta'siri ostida nihoyatda kuchli darajada o'zgarib bormoqda. Mana shu ta'sirning ko'lamlari to'g'risida quyidagi ma'lumotlar bo'yicha xulosa chiqarish mumkin: yer kurrasidagi quruqlikning umumiy maydonidan hozirgi vaqtda jahon dehqonchiligida salkam 1,5 milliard gektari doimiy shudgorlanib turiladi, dehqonchilik madaniyatining 10 ming yillik tarixi mobaynida avallari mahsuldor bo'lgan 2 milliard gektarga yaqin yerdan batamom mahrum bo'lindi, cho'l-biyobonlarga aylantirildi, har xil inshootlar qurildi, suv ostida qoldiriladi; salkam 1 milliard gektar yer dehqonchilikka yaroqli holda turibdi; hozirgi vaqtda har yili mutlaqo yo'q bo'layotgan hosildor yerlar 6-7 million gektarni tashkii qiladi, ya'ni o'rtacha tarixiy ko'rsatkichlarga nisbatan 30-35 baravar ko'payadi¹. Endilikda bu ekologik jihatdan xatarli hodisaga aylanib bormoqda, bu esa jahon ilmiy jamoatchiligining, rasmiy xalqaro organlari, shu jumladan, BMT ning ham jiddiy diqqat-e'tiborini jalb etdi. Tuproq qatlamining zarar topishi va nobud bo'lishiga qarshi kurash muammosidan keyingi barcha ekologik muammolar orasida birinchi o'ringa chiqmoqda.

Yerni har tomonlama yaxshilash, uning unumdorligini, iqtisodiy samaradorligini doimo oshirib borish bu - qaytayotgan umuminsoniy qadriyatlar, qishloq xo'jaligini yuritishning ilmiy tizimi asoslari va yerdan yuqori mahsuldorlik bilan foydalanishdir. Yerdan to'g'ri foydalanish, zamon va makonda har xil o'simlik turlarining ilmiy asoslangan ketma-ketligi, tuproqqa ekologik «toza» ishlov berish usullari, o'g'itlash, qulay agrotexnika muddatlarini, kasalliklarga qarshi himoya qilish vositalarini qo'llash, tuproq eroziyasiga qarshi kurash kabi muayyan elementlar aniq qonunchilik yo'li bilan boshqarishni talab qiladi.[2]

Iqtisodiy islohotlarni o'tkazilishi sharoitida asosiy yer toifalari (yoki yerdan foydalanishlar tarkibi) maydonlarining o'sish sur'atlari yer munosabatlarida etarli darajada chuqur o'zgarishlar yuz berayotganligi to'g'risida, jamiyatni turli-tuman moddiy boyliklarga, ijtimoiy, rekratsion, sog'lomlashtirish va tabiatni muhofazalash xizmatlariga bo'lgan zamonaviy talab-ehtiyojlarini ko'zda tutgan yer resurslarini taqsimlanishi hamda undan foydalanish xarakterining qayishuvchi jarayonlari to'g'risida guvohlik beradi. Shu bilan birga, u mamlakat yer fondidan foydalanish tarkibini optimallashtirishga yo'naltirilgan jarayonning natijasi ham emas. To'g'risi-bu mamlakatdagi iqtisodiy o'zgarishlarning birinchi bosqichida yuz bergan ijtimoiy-

¹ <https://hozir.org/jahon-qishloq-xo'jaligiga-umumiy-tarif.html>

iqtisodiy o'zgarishlar natijasidir. Bu ayniqsa qishloq xo'jaligi va aholi punktlari yerlariga tegishlidir.

Tajribalar olib borilgan Kogon tumanining tabiati, yerdan foydalanish shart-sharoitlari va geografik joylashganligi juda ham xilma -xil hisoblanadi. Kogon tumani Buxoro viloyatining markazida joylashgan bo'lib, shimoliy sharqdan Navoiy viloyati bilan, shimoliy g'arb tomondan Buxoro shahri bilan, sharq, janub va g'arbdan Buxoro tumanlari bilan chegaralangan. Kogon tumanining umumiy yer maydoni 23936 gektarni, shundan tuproqlari tekshiruvdan o'tkazilgan sug'oriladigan qishloq xo'jalik yerlari esa 17102,9 gektarni tashkii etadi. Bu yerlardan paxta, g'alla, bog'dorchilik va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish imkoniyatlar mavjud.

Kogon tumanida bugungi kunda 16 ta qishloq xo'jalik massivlari bo'lib, bu massivlarda fermer xo'jaliklari va boshqa yerdan foydalanuvchilar faoliyat ko'rsatadi. Biz tomondan 2022-2023 yillarda mavjud fermer xo'jaliklari va boshqa yerdan foydalanuvchilarga tegishli sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi, fermer xo'jaliklari uchun 1:5000 miqyosdagi va har bitta massiv uchun 1:10000 miqyosdagi tuproq sifatini baholash xaritalari o'rganib chiqildi.

Sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlari bo'yicha Kogon tumanining o'rtacha ball boniteti 51 balni tashkii etadi. Tuman iqlim sharoitiga ko'ra cho'l zonasiga to'g'ri keladi. Iqlimning asosiy xususiyati bo'lib - kunlik va yillik ko'rinishda haroratni kuchli tebranishda, yog'inlarning kam miqdorda tushishida, ularni yil fasllari bo'yicha notekis taqsimlanishida, tuproq va havo haroratini yuqoriligidan, yozgi davrda havoning qurib ketishi va kuchli bug'lanishlarning bo'lishidadir. Tumanning iqlimiy ko'rsatkichlari «Buxoro» meteorologik stansiyasi ma'lumotlari bilan tavsiflash mumkin.

Meteorologik ma'lumotlarga ko'ra o'rtacha yillik havo harorati +14 °C, eng yuqori darajasi iyulda +28 °C, eng sovuq oy (yanvar) da -1,0 °C. O'rtacha yillik yog'in 144 mm ni tashkii etadi. Birinchi kuzgi sovuq tushishi o'rtacha 21 oktyabrga, oxirgisi 24 martga to'g'ri keladi. O'rtacha birinchi qor qoplarni tushishi 26 dekabrda, uni yo'qolishi 7 fevralga to'g'ri keladi. Keltirilgan iqlim ma'lumotlarga e'tibor qaratsak tumanning iqlimiy sharoiti g'o'za va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlari yetishtirish uchun sug'orish sharoitida juda qulay.[3, 4, 5]

Kogon tumani litologik-geomorfologik sharoitlari turli xildir. Rel'efi keng to'liqsimon tekisliklardan iborat bo'lgan qismda joylashgan bo'lib, shimoli-sharqdan, janubi-g'arbgacha tomon umumiy qiyalikka ega. Sug'oriladigan dalalar qoniqarli tekislangan. Tuproq paydo qiluvchi jinslari qatlamli allyuvial yotqizilardan iborat.

O'rtacha va yengil qumoq yotqizilari qulay xususiyatlarga ega bo'lib, kesaksimon tuzilishga va suv o'tkazuvchanlik qobiliyatiga ega. Tuman tuproqlari turli darajada sho'rlanishga uchragan, 50-70 sm dan o'tloqlanish belgilar xira va zangsimon dog'lar uchraydi. Tumanni asosiy qismi kanallar, kollektorlar va sug'orish tannoqlari bilan qoplangan. Asosiy suv manbai Amu-Buxoro kanali hisoblanadi. Yer osti suvlarining asosiy manbai bu - sug'orish tarmoqlaridan va sug'oriladigan dalalardan singadigan suvlaridir.

Yer osti suvlari 1,5-2,5 m chuqurlikda uchraydi. Yer osti suvlari me'ori irrigatsion-allyuvial, chunki ularni to'yinishi sug'orish suvlarini singishi hisobiga bo'ladi. Butun tuman yer osti suvlari o'rtacha va kuchli minerillashgandir. Tumanni sug'oriladigan hududida yer osti suvlari xlorid-sulfat va sulfat- xlorid tipida minerillashgandir.[10, 11]

Kogon tumani ichki va tashqi bozor talablariga mos keladigan darajada rivojlantirish mavjud yer resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish bilan uzviy bog'liqdir. Buni amalda qo'llash uchun yerdan foydalanish tizimiga rioya qilish zarur. Ya'ni yerdan foydalanishni rejalashtirish har xil funksional va hududiy ko'rinishda yechilishi mumkin. Yerdan foydalanishni rejalashtirish va tashkil etish tizimi ulardan samarali foydalanish, muhofaza qilish holatini yaxshilash va qayta tiklashni taqozo etadi. Yerdan foydalanishning bosh chizmasi davlat boshqaruv tashkilotlari tomonidan tasdiqlangan va xalq xo'jaligini rivojlantirish, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot rejasini belgilovchi ko'rsatmalar va dasturlarni nazarda tutgan holda tuziladi. Uning tarkibiy qismi:

- yaqin kelajakda yer resurslaridan foydalanish tartibi va bashorati;
- xalq xo'jaligini uzoq muddatga rejalashtirishning ilmiy-texnik, iqtisodiy, tabiiy zahiralari,
- davlat hududida ishlab chiqarish kuchlarini mavjud sharoitini va kelajakni nazarda tutgan holda nisbatan joylashtirish plani;
- ishlab chiqarish kuchlarini yaqin kelajakda hududda joylashtirish va rivojlantirish konsepsiyasi;

Kogon tumanida yer zahiralariidan foydalanishning bosh chizmasi umumiydan shaxsiyga tamoyilida tuziladi. Bunda umumiy loyixa ayrim ko'rsatkichlar bo'yicha to'ldiriladi, xalq xo'jaligini rivojlantirishni markazlashtirilgan va hududiy tarmoqlar shaklida tashkil etish bo'yicha aniqliklar kiritiladi. Bosh chizma ikki qismdan iborat:

1. Uzoq kelajakda yerdan foydalanishni tashkil etish va muhofaza qilishning ilmiy- texnik konsepsiyasi;
2. Yer zahiralardan ma'lum darajada foydalanishni tashkil etish tartibi, sharoitlari, usullari, miqdoriy ko'rsatkichlari bo'yicha to'liq ma'lumotlarni o'z ichiga olgan takliflar.

Kogon tumanida yer zahiralariidan foydalanishning bosh chizmasini tuzishda tuman yerlarni davlat va kadastr qaydnomasi, davlat hisobot qo'mitasi, maxsus ilmiy-tekshirish, loyihalash, ishlab chiqarish, ilmiy- qidiruv, vazirliklar va boshqa tashkilotlarning ma'lumotlaridan foydalaniladi. Asosiy plan yozma ya'ni tushuntirish xati, hisoblash natijalari, jadvatlar va xarita ko'rinishdagi ya'ni hududni o'rganish jarayonidagi ma'lumotlar va chizmalardan iborat bo'lgan qismdan tashkil topgan. Yer zahiralariini muhofaza qilish uchun ulardan ilmiy asosda muntazam va rejali foydalanish bilan bir qatorda, ularni landshaft elementi sifatida saqlash lozim. Hududning biologik mahsuldorligi, atrof-muhitda maqbul suv va havo tartibi, tabiiy tozalanish va uni ta'minlashni taqozo etadi. Yerlarni muhofaza qilishning asosiy ko'rinishi uni e'zozlash, turlarini yaxshilash, unumdorligini oshirish, eroziyadan va

ifloslanishdan saqlash, o'zgargan landshaftlarni madaniylashtirish yordamida qayta tiklash, qo'riqxonalar tizimini tashkil etishdan iborat. Yerlar holatini yaxshilashda meliorativ tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Ular yordamida tuproqning ishlab chiqarish qobiliyatini ifodalovchi unumdorligi oshiriladi, fizik va qisman kimyoviy xossalari yaxshilanadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish o'zining tarkibi, xarakteri hamda yerdan foydalanishning intensivligi bo'yicha anchagina murakkabdir. Shuning uchun u bugungi kunda anchagina muammoli masaladir va uning uchun quyidagilar harakterlidir:

-yerdan foydalanishda tizimlilik mavjud emas, yerdan foydalanish o'zining to'la qayta tiklanish siklida qaralmaydi;

-qishloq xo'jalik yerdan foydalanishining to'la holatdagi tarkibi hamda har bir kichik tipdagi yerdan foydalanishdagi ekin turlarining tarkibini maqbullashtirishning yetarli emasligi;

-qishloq xo'jaligi mohiyatidagi yerlarni qayta tiklanishiga zaruriy e'tiborning pastligi;

-asoslanishni talab qiluvchi sug'oriladigan yerlarning sifat holatini yaxshilashga investitsiyaning etarli emasligi;

-meliorativ tadbirlarni o'tkazishni majmuali emasligi, tarqoqligi;

-o'rmon himoyalash polosalarini yartish va rekonstruksiya qilishga e'tiborni etarli emasligi;

-yer-suv resurslaridan foydalanishda bozor prinsiplarini etarli darajada qo'llanilmaganligi.

Umuman, qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanishning majmuali muammosi – tuproq unumdorligini qayta tiklash, tumanda eksport imkoniyatlarini hisobga olgan holda jamiyatni oziq-ovqat va xom-ashyo bilan ta'minlash bo'yicha oldinga qo'yilgan vazifalarni tadbir etish maqsadida yerlardan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlash, uni tarkibini maqbullashtirishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://hozir.org/jahon-qishloq-xojaligiga-umumiy-tarif.html>
2. O'zbekiston Respublikasining «Yer kodeksi». T.:O'zbekiston, 1998
3. Asatov, S. R., Sulaymonov, J. N., Mukhamadov, K. M., Akhrorov, A. K., & Bobojonov, S. U. (2023, February). Sustainability in land use and maintenance of soil productivity. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 1138, No. 1, p. 012027). IOP Publishing.
4. Асатов С.Р. Пути улучшения эколого-мелиоративного состояния орошаемых почв Бухарского оазиса республики Узбекистан при дефиците воды. // Ж.: «Актуальные проблемы современной науки». – Москва, 2021. – №4 (121). – С.98-100.

5. Asatov Sayitqul, Axtamov Suxrob, Mahmudov Mironshoh. Removal of chemical weed killers and organics from irrigated land. International Conference on Scientific, Educational & Humanitarian Advancements Hosted online from, Samsun, Turkey, July 15 th , 2021.pp-264-267. www.econferenceglobe.com.
6. Asatov Sayitkul Rahimberdievich, Muhamadov Kamoriddin Mukhtor oglu, A. K. Akhrorov. Contamination of Irrigated Soils with Toxic Substances and Protection of Them. International Journal of Human Computing Studies (IJHCS). <https://journals.researchparks.org/index.php/IJHCS> e-ISSN: 2615-8159 | p-ISSN: 2615-1898 Volume: 04 Issue: 4 | April 2022. Page 70
7. Khurramovich, N. O. (2022). Determination and Assessment of Places at Risk of Desertification Using Geoinformation Technologies. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 15, 56-58.
8. Xurramovich, N. O., & Bekmurodovna, H. Z. (2022). The Place and Role of Ecology in Geographic Information Systems. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 14, 51-54.
9. SR Asatov, EK Karimov, BO Ahmadov, SF Akhtamov - " ONLINE- CONFERENCES" PLATFORM, 2021 USE OF LAND INFORMATION SYSTEM IN DISTRICT LAND FUND DISTRIBUTION
10. Muzaffarov R. Asatov S, Axmadov B, Jurayev Q The ways of improvement of oecological-meliorative condition of irrigated soils in the Bukhara oasis of uzbekistan in conditions of water scarcity